



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-fevral)



Das`tlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahar korxonalarini tomonidan 8,7 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 105,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (63,3 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 4,9 % ga va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 3,3 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 29,2 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 5,8 % ga o'sishi kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,2 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 25,5 % ni tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan shagʻal qazib olish 10,4 marta oshgan boʻlsa, neft qazib olish 14,1 % ga, tabiiy gaz 4,7 % ga, gazli kondensat 6,5 %, hamda chaqiq tosh qazib olish 56,5 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar - fevral	2021-yil yanvar - fevral	Farqi +/-
Neft, ming t.	93,7	107,0	13,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	5 962,0	5 679,6	-282,4
Gaz kondensati, ming t.	130,8	122,3	-8,5
Chaqiq tosh, ming t.	4,8	2,1	-2,7
Shag'al , ming t.	0,8	8,8	7,9


Ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,8 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 32,1 % ni tashkil etdi.







**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,5 % ni (2020-yilning yanvar –fevral oylarida 6,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali 15,6 % (14,7 %), o'rta-quyi texnologiyali 16,5 % (14,5 %) va quyi texnologiyali 25,6 % (26,9 %) ni tashkil etdi.

**2020-yil
yanvar - % da**




**2021-yil
yanvar % da**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 23,3 % (2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi 5,1 % (2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 7,2 % (2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % (2020-yilning yanvar – fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 4,6 % (2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,3 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2021-yilning yanvar-fevral oylariga ishlab chiqaradigan sanoatda 54,6 mln. dona butilka (2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,9 % ga o'sgan), 1325,5 ming litr uzum vinosi (8,1 %), 463,9 mln. dona tamaki mahsuloti (2,1 marta), 3 674,3 ming litr aroq 100 % spirt (16,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.







Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevral	2021-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	44 902,0	22 006,0	-22 896,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	570,0	315,8	-254,2
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	3 482,2	1 322,8	-2 159,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	7,6	8,0	0,4
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	67 658,0	57 348,0	-10 310,0



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,8 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,4 % ni) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 % ga oshganligi kuzatildi.






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil Yanvar-fevral	2021-yil Yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	67,6	60,3	-7,3
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	3 786,1	3 823,3	37,2
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm.</i>	300 905,0	145 692,0	-155 213,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevral	2021-yil Yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	14,7	12,7	-2,0
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	73,8	80,8	7,0
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	32,2	26,8	-5,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 7,0 % ga oshdi. tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 5,3 % ga pasaydi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,0 % ga pasaydi..



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,8 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga kamaygan , uning jami sanoatdagi ulushi 32,1 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar-fevral oyida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 52,5 % dan 57,3 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 8,3 % (2020- yil yanvar-fevral oylarida 7,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 15,9 % ni shuningdek, Uchtepa tumani 15,1 % ni, Olmazor tumani 12,5 % ni, Mirobod 10,6 % ni, Sergeli tumani 10,1 % ni hamda Bektemir 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (102,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzo Ulug'bek (128,7 %), Olmazor (117,6 %), Sergeli tumanlarida (114,6 %) hamda Uchtepa (106,5 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar - fevral oylarida)

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	2 794,6	100,0	99,7
Uchtepa	420,8	15,1	106,5
Bektemir	253,6	9,1	90,0
Yunusobod	141,2	5,1	105,6
Mirzo Ulug'bek	161,3	5,8	128,7
Mirobod	294,8	10,6	113,2
Shayxontohur	70,6	2,5	79,8
Olmazor	349,4	12,5	117,6
Sirg'ali	281,6	10,1	114,6
Yakkasaroy	155,7	5,5	92,1
Yashnobod	442,1	15,9	89,5
Yangihayot	71,6	2,6	79,2
Chilonzor	144,4	5,2	67,6

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 23,1 %, shuningdek, Olmazor 18,1 % ni, Sirg'ali tumani 12,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy (165,5 %), Mirzo Ulug'bek (113,7 %), Sirg'ali (113,3 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021- yilning yanvar-fevral oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	1 597,9	100,0	96,8
Uchtepa	78,0	8,1	90,0
Bektemir	220,9	23,1	90,9
Yunusobod	74,6	7,8	100,4
Mirzo Ulug'bek	33,1	3,5	113,7
Mirobod	25,4	2,6	98,7
Shayxontohur	23,3	2,4	76,0
Olmazor	173,6	18,1	110,9
Sirg'ali	115,6	12,1	113,3
Yakkasaroy	69,3	7,2	165,5
Yashnobod	40,3	4,2	77,0
Yangihayot	36,1	3,8	66,2
Chilonzor	68,1	7,1	72,8

Hududlar kesimida noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchtepa tumaniga to'g'ri kelib 21,5 % ni, shuningdek, Mirobod 16,9 % ni, Yashnobod 14,0 % ni, Olmazor 11,0 % ni, Sirg'ali 9,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, noziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Mirzo Ulug'bek (133,4 %), Olmazor (125,3 %), Sirg'ali (115,0 %), Mirobod (114,8 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar-fevral oyida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	1 597,9	100,0	99,6
Uchtepa	342,8	21,5	111,2
Bektemir	32,7	2,0	85,1
Yunusobod	54,4	3,4	105,3
Mirzo Ulug'bek	128,2	8,0	133,4
Mirobod	269,4	16,9	114,8
Shayxontohur	27,9	1,7	71,5
Olmazor	175,9	11,0	125,3
Sirg'ali	144,2	9,0	115,0
Yakkasaroy	86,4	5,4	68,0
Yashnobod	224,3	14,1	79,4
Chilonzor	35,5	2,2	81,0
Yangihayot	76,3	4,8	64,8


**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**


	2021- yil yanvar-fevral mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	8 686,3	105,1
Uchtepa	692,1	106,1
Bektemir	534,6	94,3
Yunusobod	363,3	84,2
Mirzo Ulugʻbek	666,8	103,1
Mirobod	753,1	90,0
Shayxontohur	411,1	109,7
Olmazor	610,4	104,5
Sirgʻali	631,8	106,9
Yakkasaroy	575,8	95,9
Yashnobod	3036,0	103,5
Yangihayot	109,8	87,9
Chilonzor	301,5	95,3



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Yunusobod (2020-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan 84,2 %), Yangihayot (87,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.


Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da	Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da
---	---



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzo Ulug'bek (128,7 %), Olmazor (117,6 %), Sirg'ali (114,6 %) hamda Uchtepa tumanlarida (106,5 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,0 %), Mirobod (8,7 %), Uchtepa (8,0 %), Mirzo Ulug'bek (7,7 %) hamda Sergeli (7,3 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangiheyot (1,3 %) hamda Chilonzor (3,5 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2021-yil yanvar-fevral oyida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2,4 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 28,1 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiheyot tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 86,3 %), Chilonzor tumanida (65,0 %), Olmazor tumanida (56,9 %), Yunusobod (51,8 %), Sirg'ali (45,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Mirobod (11,2 %), Shayxontohur (14,9 %) va Yashnibod (20,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,2 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,5 %) Olmazor tumaniga, 2,0 mingtasi (12,4 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,8 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,8 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,9 %) Shayxontohur tumaniga, 1,3 mingtasi (8,3 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021-yilning yanvar-fevral oylarida shaharda 395 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 56 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,2 %) Chilonzor tumanida, 48 tasi (12,2 %) Uchtepa tumanida, 42 tasi (10,6 %) Shayxontoxur tumanida, 37 tasi (9,4 %) Yunusobod tumanida, 36 tasi (9,71 %) Olmazor tumanida, hamda 30 tasi (7,6 %) Sirg'ali tumanida tashkil etildi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonolari
(2021-yil 1 - mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonolari joylashgan hududlar Olmazor (2 183 ta), Chilonzor 2 010 ta), Uchtepa (1 917 ta), Yunusobod (1 753 ta) hamda Shayxontohur (1 437 ta) tumanlarida qayd etildi.



2021-yilning 1-mart holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonolari joylashgan hududlar esa Bektemir (507 ta), Yangihayot (528 ta), Mirobod (944 ta), Yakkasaroy (1 258 ta), Yashnobod (1 292 ta), Mirzo Ulug'bek (1 338 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 203-88-16